

O'ZBEKISTONDA YIRIK TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH ASOSLARI

Fayziyev Hosilbek Alijon o'g'li

Bank moliya akademiyasi magistranti

hf_bfa@mail.ru

Anatatsiya: O'zbekiston Respublikasida yirik tijorat banklarini xususiylashtirishning asosiy maqsadi bank sektorini modernizatsiya qilish, raqobat muhitini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishdan iborat. Xususiylashtirish jarayoni orqali davlatning bank tizimidagi ulushini kamaytirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va banklarning boshqaruv tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Abstract: The main goal of the privatization of large commercial banks in the Republic of Uzbekistan is to modernize the banking sector, develop a competitive environment, and improve the quality of financial services. The privatization process is intended to reduce the state's share in the banking system, as well as attract foreign investment and improve the management system of banks.

Kalit so'zlar: Bank tizimi, transformatsiya, Fin-tech kompaniyalar, jahon iqtisodiyoti, xususiylashtirish.

Keywords: Banking system, transformation, Fin-tech companies, world economy, privatization.

Tijorat banklarini xususiylashtirish — bu davlatga qarashli tijorat banklarining aksiyalarini yoki ulushlarini xususiy shaxslar yoki yuridik shaxslarga sotish orqali ularning boshqaruvini va moliyaviy manfaatlarini xususiy sektor vakillariga o'tkazish jarayonidir. Ushbu jarayon mamlakat iqtisodiyotining bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish va moliyaviy tizimning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xususiylashtirishning asosiy maqsadlari:

1. Raqobat muhitini yaratish: Xususiy sektorning faol ishtiroki orqali banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mumkin. Bu mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga va innovatsion mahsulotlarning joriy etilishiga olib keladi.

2. Resurslarni samarali taqsimlash: Xususiy banklar bozor talablariga tezda moslashib, kapitalni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

3. Davlat byudjetiga yuklamani kamaytirish: Davlatga qarashli banklarni xususiylashtirish orqali davlat byudjetiga bo'lgan moliyaviy yuklamani kamaytirish va resurslarni boshqa ijtimoiy sohalarga yo'naltirish mumkin.

4. Xalqaro tajribadan foydalanish: Xususiylashtirish jarayonida xalqaro moliyaviy institutlarning tajribasini joriy etish, shu orqali bank tizimini modernizatsiya qilish va global standartlarga moslashtirish imkoniyati yaratiladi

Bugungi jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat barchamizga ma'lum haqiqat. Jamiyat talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti ham keskin raqobatdan holi emas. Bunda bank tizimining roli shubhasiz yuqori. Tijorat banklari faoliyati ham biznesga asoslanganligi bois ular samaradorligini ta'minlash masalasi ham nafaqat milliy, balki xorijiy tijorat banklari hamda hukumatlarining doimiy diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bunda esa o'z-o'zidan bank tizimining transformatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotidagi moliyalashuv va raqamlashuv sharoitida O'zbekiston milliy bank tizimi transformatsiyasi borasida so'nggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mazkur masala Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. 2023 yil 20 noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo'yicha yig'ilish ham buni tasdiqlab turibdi. Tahlillarga ko'ra 2010-yillar davomida moliyaviy texnologiyalarga asoslangan Fin-tech kompaniyalar moliya bozorida o'z faolliklarini oshirishdi. 2018 yilga kelib jahonda Fin-tech kompaniyalar raqamli amaliyotlar tufayli yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini namoyon qila boshladi va ma'lum bir moliyaviy amaliyotlar bo'yicha tijorat banklariga raqobatlasha boshlashdi. Shunday sharoitda tijorat banklari raqamli transformatsiyasi zarurati kun tartibiga chiqdi. Natijada tijorat banklari tomonidan Fin-tech kompaniyalarni qo'shib olish yoki moliyaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli bank mahsulotlarini joriy etish jahon bozorida keskin rivojlandi. Bunda

bank xizmatlarini global pandemiya sharoitida ko'rsatish zarurati ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xorijiy an'anaviy banklarning yuqori sur'atlarda raqamli banklarga transformatsiyasi sharoitida mamlakatimizdagi tijorat banklari transformatsiyasi global raqobatga kirishishda muhimdir. Bunda xususiy banklar transformatsiyasi asosan raqamli transformatsiyaga yo'naltirilsa, davlat ishtirokidagi tijorat banklari transformatsiyasi ikkita yo'nalishda tashkil etilishi muhimdir. Bular bank aktivlarida xususiy banklarning ulushini keskin oshirishga erishish va ikkinchi tomondan raqamli transformatsiya amaliyotidir. [Elmirzayev, 2023. 1]

Xususiy sektor banklari davlat sektoridagi banklarga qaraganda ancha rivojlanganligi va yanada samarali ishlashi barchaga ma'lum. Shu sababdan xorijiy investorlar sarmoyalarni davlat banklarga emas, balki xususiy banklariga joylashtirishni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari, davlat banklari odatda xususiy banklariga qaraganda kamroq raqobatbardoshdir. Xususiy banklarning yana bir afzalliklaridan biri bu xodimlarning o'z ishiga nisbatan ma'suliyatli va jiddiy munosabatda bo'lishlari operatsion riskni pasaytiradi va bu turdagi banklar minimal risk tushunchasiga amal qilishadi. Fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan salbiy holatlarning asosiy sababi bank sektorida yuritilayotgan bugungi kun talabiga to'laqonli javob bera olmayotgan chora-tadbirlar hisoblanadi. Jumladan, davlat ishtirokidagi banklar va u orqali iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan bir necha muammolarni ko'rib chiqamiz. Birinchi mumammo bu- inflatsiya. Inflyatsiya nazariy jihatdan mamlakat iqtisodiyotida pul massasi ko'payib ketishi oqibatida yuzaga keladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Pul massasi regulatori vazifasini Markaziy bank o'taydi. Lekin tijorat banklarining haddan ziyod ko'p ajratgan imtiyozli, ya'ni pas foizli kreditlari asosida mamlakatda inflatsiya darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Ikkinchi mumammo bu- yuqori foiz stavkasi. Hozirgi kunda ajratilayotgan kreditlarning 60 foizi bu past foiz stavkasidagi imtiyozli kreditlar hisoblanadi va asosan tijorat banklarida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizdan ortig'i davlat sektoriga, 29 foizi esa xususiy sektorga ajratiladi. Hukumat talabiga binoan tijorat banklari davlat dasturlarini amalga oshirish uchun yirik miqdorda imtiyozli kreditlar ajratadi. Odatda imtiyozli kreditlar budjet hisobidan subsidiyalashtirilmaganligi sababli, bank bu xarajatni kichik biznesdan yuqori foiz hisobiga undirishga urinadi. Bu urinish

esa mamlakat iqtisodiyotida foizlarning yuqoriligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yana bir asosiy muammolarimizdan biri bu- raqobat masalasidir. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklarimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan ular ma'lum bir sohalarga ixtisoslashtirilgan va bu o'z-o'zidan banklar orasida raqobatga to'sqinlik qiladi. Agar biz tijorat banklarini xususiylashtirsak, birinchi navbatda ular inflatsiyaning asosiy sababchisi- imtiyozli kreditlardan kam miqdorda foydalanishga xarakat qiladi va bu foiz stavkalarini pasaytiradi. Ikkinchidan, foiz stavkalari sog'lom raqobat sharoitida mijozlar uchun kurash jarayonida tabiiy ravishda pasayadi. Qolaversa, banklar mijozlar bozorida o'z o'rniga ega bo'lish uchun yanada sifatli, tezkor, hamda universal bank xizmatlarni ko'rsatishga va yangi xizmat turlarini joriy qilishga urinadi. Bu o'z-o'zidan bank sohasida modernizatsiya jarayonini boshlab beradi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, xususiy banklar ham kamchiliklardan holi emas. Mamlakatimizdagi banklar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, shu kunga qadar faoliyatiga barham berilgan banklarning barchasi xususiy banklardir va ularning har biri noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish, mamlakat hududidan valyutalarni noqonuni ravishda chetga chiqarish faoliyati bilan shug'illangan. Demak, tijorat banklarining xususiylashtirilishi bank sohasida bir qator qonundan chetlashish holatlariga ham olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bilamizki har bir mijoz kredit olish jarayonida kam vaqt ichida, ortiqcha qog'ozbozliklarsiz yetarli pul mablag'iga ega bo'lishni xohlaydi. Mijozlar talabiga binoan, raqobatchilardan ortda qolmaslik uchun kreditlash jarayonidagi hujjatlarni kamaytirishga urinishadi. Bu esa bir qancha muammolarni, xususan kredit riskini maksimal darajaga ko'tarishi va hattoki bank faoliyatini jar yoqasiga yetaklab kelishi mumkin.[Adhamov, 2023. 3-4]

Bank sektori, birinchi navbatda, davlat ishtirokini kamaytirish va xususiy sektorning rolini kuchaytirish orqali islohotlarni chuqurlashtirishga muhtoj. Shu munosabat bilan 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni qabul qilindi. Farmonda davlat banklarini xususiylashtirish va 2025 yilga kelib bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 19 foizdan 60 foizgacha oshirish ko'zda tutilgan. Xususan, "Ipoteka-bank", "O'zsanoatqurilishbank", "Asakabank", "Alokabank",

"Qishloq qurilish banki" va "Turonbank" xususiylashtiriladi. 2021 yilda ikkita davlat bankini Rossiya kompaniyalariga sotish rejalari haqida ma'lum bo'ldi: "Poytaxtbank"ni sotib olishning asosiy talabgori "Ekspobank" bo'ldi, "Sovkombank" "O'zagroeksportbank"ni sotib olish niyatini bildirdi. Bundan tashqari, Vengriya OTP banki "Ipoteka-bank"dagi 75 foiz davlat ulushini sotib olishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, davlat xususiylashtirish jarayoniga ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda va har bir islohotni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Chunki nafaqat aktivni imkon qadar qimmatga sotish, balki investitsiyalarga qo'shimcha ravishda zamonaviy texnologiyalar va ekspertizalarni olib keladigan, O'zbekistonda o'z mamlakatlarida ishlashning eng yaxshi amaliyotlarini qo'llaydigan institutsional investorlarni jalb qilish muhimdir. Banklarda biznesni o'zgartirish bo'yicha loyiha ofislari tashkil etilib, tijorat banklarini xususiylashtirish masalalari bo'yicha xalqaro maslahatchilarni jalb etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, "Ipoteka-bank"ni xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida XMK (IFC) bankka 35 mln. AQSh dollari ekvivalentida o'zbek so'mida kredit taqdim etdi. YETTB "O'zsanoatqurilishbank"ga xususiylashtirish, g'aznachilik operatsiyalarini takomillashtirish, aktivlarni boshqarish masalalari bo'yicha maslahat berdi. Yaqin yillarda O'zbekistonda bank sektorini xususiylashtirish uning raqobatbardoshligini oshirishi va uning rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga faol hissa qo'shishi kutilmoqda. [2025]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklarini xususiylashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon orqali bank tizimini modernizatsiya qilish, raqobatni oshirish va moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash mumkin. Biroq, xususiylashtirish jarayoni puxta rejalashtirilishi va amalga oshirilishi, shuningdek, huquqiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda bajarilishi zarur.

Foydalinlgan adabiyotlar.

1. Moliya tizimini raqamli texnologiyalar yordamida transformatsiya qilish: muammolar va yechimlar mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezlari to'plami "Тижорат банкларидаги давлат улушини хусусийлаштириш ва трансформация" С.Элмирзаев 2023 yil 1 bet.

2. Adhamov Umidjon Yorqinjon o'g'li "Tijorat banklarini xususiylashtirishning ayrim jihatlari, ipoteka banklari misolida" Journal Of New Century Innovations jurnal, Volume-34_Issue-1_Avgust_2023

3. kun.uz 2025 yil

4. "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni